

YURIDIK SHAXSLARNING BAQARORLIK REYTINGI TIZIMI BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUV VA AMALIY NATIJALAR

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Namangan davlat universiteti, Menejment kafedrası

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2685-5398

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda joriy etilgan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimining nazariy asoslari, baholash mezonlari va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Reyting tizimi yuridik shaxslarning moliyaviy holati, soliq intizomi, huquqiy barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyati asosida ballar tizimi orqali baholanishini nazarda tutadi. Tadqiqotda reyting darajasi bilan korxonalarining daromadlari, soliq to'lovlari, ish haqi va eksport ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi statistik va grafik tahlillar asosida isbotlangan. Shuningdek, barqarorlik reytingi natijalari Soliq qo'mitasining CRM-NEW xavf tahlil tizimi bilan solishtirilib, tizimning ishonchliligi baholandi. Maqolada reyting tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Barqarorlik reytingi, soliq intizomi, soliq yuki, fiskal boshqaruv, reyting mezonlari, CRM-NEW, iqtisodiy samaradorlik, soliq rag'batlari, yuridik shaxslar, ball tizimi.

Kirish

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi va soliq intizomini baholashda reyting yondashuvi muhim vositaga aylangan. Xalqaro amaliyotda kredit reytinglari orqali korxonalar ishonchliligi baholanadi, davlatlar esa ushbu reytinglardan fiskal xavflarni oldindan aniqlash va iqtisodiy muvozanatni saqlashda foydalanadi [4][5].

O'zbekistonda 2024-yil 1-fevraldan boshlab "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimi joriy etilib, korxonalarni 23 ta mezon asosida ball tizimi orqali "AAA"dan "D" gacha toifalarga ajratish mexanizmi ishga tushirildi [9]. Ushbu reyting modeli moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, soliq xulqi, faoliyat davomiyligi, hisobot intizomi va ijtimoiy mas'uliyatni ham qamrab oladi.

Mazkur maqolada ushbu reyting tizimining nazariy asoslari, baholash mezonlari, iqtisodiy va fiskal samaradorligi, amaliy natijalari hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini reyting asosida baholash g'oyasi xalqaro amaliyotda ko'p yillardan buyon faol qo'llanib kelinmoqda. Reyting tizimlari, asosan, kredit ishonchliligi, fiskal intizom, moliyaviy barqarorlik va biznes muhitga integratsiyalashgan yondashuvlar orqali shakllantiriladi. Xususan, **Standard Poor's**, **Moody's**, **Fitch Ratings** agentliklari tomonidan qo'llaniladigan "AAA–D" reyting modeli bugungi kunda jahon moliyaviy bozorlari uchun umumiy standart hisoblanadi (Altman, 2013; White, 2017)[1][6].

O'zbekistonda joriy etilgan barqarorlik reytingi tizimi mazkur xalqaro tajribalardan ilhomlanib ishlab chiqilgan bo'lib, soliq intizomi, elektron hisobotlar,

faoliyat davomiyligi, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat mezonlariga asoslanadi. Ayni yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar (Rustamov, 2022; Karimov, 2023) soliqqa oid axborotlar orqali biznes faoliyatini tahlil qilish, ball tizimi asosida baholash va soliq siyosatini rag‘batlantirish vositasiga aylantirishning nazariy asoslarini bayon etadi[7][8].

Xalqaro adabiyotlarda korxona faoliyatini reyting asosida baholashda **EBITDA**, **DSCR**, **soliq yukining** nisbati, va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar asosiy indikator sifatida ko‘riladi (Damodaran, 2020; Graham & Smart, 2019)[2][3]. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi, qarzдорlik darajasi va byudjetga to‘lov intizomi aniqlanadi. O‘zbekistonda esa reyting tizimi o‘ziga xos tarzda nafaqat moliyaviy, balki huquqiy va ijtimoiy indikatorlar bilan ham boyitilgan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirishga ball berilishi tizimga ijtimoiy yo‘naltirilganlik xususiyatini beradi (Soliq.uz, 2024)[11].

Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar reyting tizimlarining fiskal boshqaruvdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Masalan, **OECD (2021)** va **IMF (2019)** hisobotlarida reyting mexanizmlari fiskal xavflarni oldindan aniqlash, soliq bazasini kengaytirish va siyosiy barqarorlikni oshirishda muhim vosita sifatida e’tirof etilgan [4][5].

O‘zbekiston misolida reyting tizimi nafaqat fiskal intizomni oshirish, balki iqtisodiy muhitni rasmiylashtirish, xatarlarni kamaytirish va soliq boshqaruvini raqamlashtirish yo‘nalishida joriy etilgan ilg‘or tashabbus sifatida baholanishi mumkin. Ushbu tizim bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar (Abdullayev, 2024) reyting natijalari bilan soliq tushumlari, foyda, ish haqi va eksport o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini bergan [13].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barqarorlik reytingi tizimi zamonaviy fiskal boshqaruvning muhim tarkibiy elementi sifatida qaralayapti. Shu sababli, O‘zbekistonda joriy etilgan ushbu model xalqaro metodologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda ishlash imkoniyatiga ega va u iqtisodiy tahlil uchun ham, soliq siyosati samaradorligini oshirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy baza yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” tizimi iqtisodiy va fiskal samaradorlik nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Reyting tizimining ichki tuzilmasi baholash mezonlari, ballar shakllanishi va toifalarga ajratish tamoyillari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. 2024-yil yakuni bo‘yicha 192 mingdan ortiq korxonaga oid statistik ma’lumotlar deskriptiv va grafik tahlillar yordamida tahlil qilinib, reyting va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlash uchun korelatsion yondashuv qo‘llandi.

Shuningdek, reyting natijalari Soliq qo‘mitasining CRM-NEW xavf tahlil tizimi bilan solishtirilib, baholashning ishonchlilik darajasi o‘rganildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali reyting mezonlarining huquqiy asoslari va ularni takomillashtirishga doir yangi takliflar chuqur o‘rganildi [10]. Amaliy misollar asosida reytingning real natijalari tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri ko‘rsatildi.

Ushbu yondashuvlar asosida reyting tizimining amaliy foydasi, aniqligi va rivojlanish istiqbollari baholandi. Tahlillar reyting tizimini soliq intizomini

rag'batlantiruvchi va iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi samarali vosita sifatida shakllanayotganini tasdiqladi.

Tahlil va natijalar


Barqarorlik reytingi tizimi tadbirkorlik subyektlarini maxsus mezonlar asosida ball to'plash orqali AAA, AA, A, BBB, BB, B, CCC, CC, C va D kabi toifalarga ajratadi. Reyting baholash mezonlari jami 23 ta bo'lib, 3 guruhga bo'lingandir. Birinchi guruh barcha uchun bir xil 10 ta umumiy mezon (maksimal 100 ballgacha), ikkinchi guruh 9 ta kamaytiruvchi mezon (qonunbuzilish holatlari, hisobotlarni takror tuzatishlar, yil davomida boshqa hududga ko'chib yurish kabi salbiy holatlar uchun ball olib tashlanadi) va uchinchi guruh 4 ta rag'batlantiruvchi mezon. Shunday qilib, korxona faoliyatidagi ijobiy omillar uchun ball to'planib boradi, salbiy holatlar yuz bersa ayrim balllar ayiriladi. Yakunda to'plangan sof ball miqdoriga qarab korxona reyting toifasiga mos ravishda eng yuqori "AAA"dan eng past "D"gacha baholanadi. AAA – eng yuqori barqarorlik va ishonchlilik belgisi, kompaniya barcha mezonlar bo'yicha a'lo natijaga ega va xavf ko'rsatkichi minimaldir. AA va A – yuqori reytinglar, lekin AAA darajasidan biroz past. BBB, BB, B – o'rtacha reytinglar, kompaniya majburiyatlarini bajaradi, ammo barqarorlik o'rtacha darajada. CCC, CC, C – past reytinglar, faoliyatda muammolar yoki qonunbuzilishlar mavjudligini ko'rsatadi. D – eng quyi toifa bo'lib, bu toifadagi subyektlarning moliyaviy barqarorligi yoki soliq intizomi juda past, reyting mezonlari bo'yicha to'plagan umumiy balli eng past qiymatda bo'lishi mumkin.

Reyting modelida faoliyat davomiyligi, o'z vaqtida va to'g'ri hisobot topshirish, soliqlarni kechiktirmay to'lash kabi jihatlar katta rol o'ynaydi. Misol uchun, faoliyatini qancha uzoq va barqaror davom ettirgan bo'lsa, kompaniya tajriba mezoni bo'yicha shuncha yuqori ball oladi. Soliq hisobotlari muddatida topshirilsa va xatoliklarsiz bo'lsa, ball beriladi; aksincha, hisobotlarni takroran tuzatish holatlari ko'paysa, kamaytiruvchi mezonlar orqali ball ayiriladi. Shu sababli, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va ixtiyoriy bajarish reytingda yuqori ball olishni kafolatlaydi. Shuningdek, boshqa rag'batlantiruvchi omillar masalan, xodimlar tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalardan ishchilar ulushi yuqori bo'lsa, tadbirkorga qo'shimcha ball beriladi. Bunday tizim shaffof reyting tamoyillariga asoslangan bo'lib, har bir tadbirkor o'z ballari qanday shakllanayotganini kuzatishi mumkin. Reyting platformasi Soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi veb-saytida har kuni yangilanib boriladi, bu esa ochiqlik, shaffoflik va axborot almashinuvini ta'minlaydi [11][12].

Har bir reyting toifasi uchun me'yoriy hujjatlar va baholash mezonlarida tegishli tavsif va talablari belgilangan. Misol uchun, "AAA" toifasi eng yuqori reyting bo'lib, 90–100 va undan yuqori ball to'plagan, soliqlarni o'z vaqtida to'lab boruvchi, hisoboti mutlaqo beg'araz va xatolarsiz, kamida bir necha yil barqaror faoliyat yuritayotgan subyektlar kiradi. "D" toifasi esa aksincha, qonunchilik talablarini muntazam buzgan, soliq qarzdorligi yuqori yoki umuman faoliyat ko'rsatmayotgan, ballari manfiy yoki minimal bo'lgan korxonalarini ifodalaydi. B va C oraliq toifalardagi korxonalar esa ko'pincha kichik va o'rta biznes subyektlari bo'lib, ularda soliqlarni kech to'lash, hisobotlarda xatolar kabi sabablar tufayli reytingi pasaygan bo'lishi mumkin. BBB

toifadagilar esa qonunbuzarliklarsiz ishlaydigan, lekin ayrim ko‘rsatkichlari eng yuqori darajada bo‘lgan o‘rtacha yirik kompaniyalarni qamrab oladi.


Reyting toifalarining mazkur tavsifi amaliyotda ham o‘z aksini topadi. Yuqori reytingdagi korxonalar asosan yirik va faol kompaniyalar bo‘lsa, quyi reytingda kichik yoki faoliyati sust subyektlar jamlangan. Quyida 2024-yil yakunlari bo‘yicha reyting toifalari kesimidagi statistik tahlillar keltiriladi.



1-rasm. Reyting toifalari bo‘yicha korxonalar soni (2024-yil yakuni).

2024-yil holatiga ko‘ra, reyting baholash platformasi orqali baholangan jami korxonalar soni 192 mingdan ortiqni tashkil etdi. Ulardan atigi 1% ga yaqini “AAA” reytingini qo‘lga kiritgan bo‘lsa, “AA” va “A” toifalari ham qo‘shib hisoblaganda yuqori reytingga ega subyektlar taxminan 2,7% ni tashkil qildi. Aksariyat subyektlar esa pastroq reytinglarda jamlangan. Eng ko‘p ulush “CC” 24,2% toifasiga to‘g‘ri keldi, qolgan yirik guruhlar “B” (15,6%), “D” (15,6%), “C” (14,1%) ulushga ega bo‘ldi


Bu taqsimotdan ko‘rinadiki, ko‘plab faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlari hozircha reyting mezonlari bo‘yicha yuqori ball to‘play olmayapti va “o‘rtacha-past” toifalarda turibdi. 1-rasmda reyting toifalarining son jihatdan taqsimoti, 2-rasmda esa ulushlari foizda aks ettirilgan.



2-rasm. Reyting toifalari bo‘yicha korxonalar soni (2024-yil yakuni)

Keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, reyting natijalarining taqsimoti notekis: juda kam sonli korxonalar yuqori reyting olgan, aksariyat tadbirkorlar esa past ball yig'ib, quyi toifalarga tushgan. Bu holat mezonlarning talab darajasi yuqoriligini va kichik subyektlar ularga erishishda qiyinchilikka duch kelayotganini ko'rsatadi. Biroq, reytingning rag'batlantiruvchi ahamiyati shundaki, yuksak reytingga erishgan korxonalar davlat tomonidan bir qator imtiyozlar va preferensiyalarga ega bo'ladi. Jumladan, agar tadbirkor “AAA” toifasidagi reytingga ega bo'lsa, soliq organlari tomonidan tekshirishlar o'tkazilmaydi, QQS bo'yicha ortiqcha to'lov summasi 1 kunda qaytariladi (odatiy 7–30 kun o'rniga) va QQSdan tashqari boshqa soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lovlar 3 kun ichida qaytarib beriladi. “A”, “AA” reytingiga ega subyektlar ham shunga o'xshash tarzda soliqlarni tez qaytarish bo'yicha imtiyozlarga ega. Ortiqcha soliq to'lovlarini 3 kun ichida byudjetdan qaytarib olish huquqi beriladi. Shu tariqa, reytingi yuqori tadbirkorlik subyektlari uchun tezkor QQS qaytimi, kameral nazoratlar chegaralanishi kabi rag'batlar joriy etilgan. Past reytingli korxonalarga esa hech qanday jarima chorasi qo'llanilmaydi. Bu yondashuv reytingning “jazolovchi emas, rag'batlantiruvchi” tamoyiliga mos keladi.

Reyting ballari bevosita korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini ham aks ettiradi. Yuqori reyting ko'pincha yuqori foyda va ko'proq soliq to'lovlari bilan bog'liq bo'ladi. Chunki bunday korxonalar odatda yirik va barqaror faoliyat ko'rsatadi. Quyi reytingdagi subyektlarning esa daromadlari nisbatan kam, soliq to'lovlari ham past bo'lishi kuzatilmoqda. Mazkur gipotezani tasdiqlash uchun reyting va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Natijada, reyting darajasi oshgan sari o'rtacha foyda sezilarli oshib borishi aniqlandi (3-rasm)[13]. Misol tarzida, AAA reytingga ega kompaniyalarning o'rtacha yillik foydasi A yoki BBB toifadagilarga nisbatan bir necha barobar yuqori. Quyidagi chiziqli grafika reyting toifasi va o'rtacha foyda o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi.



3-rasm. Reyting toifasi va o'rtacha foyda miqdori o'rtasidagi bog'liqlik


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AAA reytingli eng yirik kompaniyalar davlat byudjetiga eng ko'p soliq to'lovlarini amalga oshiruvchi subyektlar hisoblanadi.

Masalan, AAA reytingiga ega korxonalar ulushi atigi 1% bo'lsa-da, ularning jamiga to'lagan foyda solig'i va QQS hissasi ancha yuqori (baholashlarga ko'ra 10–12% atrofida). D reytingli korxonalar esa soliq to'lovlarining atigi juda kichik qismini (taxminan 1–2%) to'lashadi, chunki ularning ko'pi kichik subyektlar yoki faol emas.

Ish o'rinlari soni va ish haqi fondi ham reytingga bog'liqdir. Yuqori reytingga ega kompaniyalarda o'rtacha ishchi soni va o'rtacha ish haqi past reytinglilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Masalan, AAA/AA toifadagi korxonalarda ishchilarning o'rtacha oylik ish haqi 5-6 million so'mni tashkil etsa, C yoki D toifadagi subyektlarda bu ko'rsatkich taxminan 1-2 mln so'm atrofida xolos.

Eksport faoliyati ham reytingga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lib, yuqori reytingli tadbirkorlarning sezilarli qismi eksportyorlardir. Xususan, AAA va AA reytingiga ega firmalarning katta qismi jahon bozoriga mahsulot yoki xizmat chiqargan korxonalardir. Bu ularga rag'batlantiruvchi mezonlar orqali qo'shimcha balldir va albatta, yuqori daromad keltiradi. Past reytingli korxonalarning esa deyarli barchasi ichki bozorgagina ishlaydi va eksport ulushi deyarli 0% darajada.

Yuqoridagi dalillar reyting va korxonaning iqtisodiy holati o'rtasida mustahkam bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, reyting tizimi haqiqatan ham kompaniyaning foyda, rentabellik, soliq intizomi kabi jihatlarini integral baholab, ularning umumiy barqarorlik darajasini ifoda etmoqda. 4-rasmda korxonalarning reyting toifalari bo'yicha hududlar kesimidagi taqsimoti keltirilgan. Undan ko'rish mumkinki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda masalan, Toshkent shahri yuqori reytingli korxonalar nisbatan ko'proq jamlangan, sanoati uncha rivojlanmagan viloyatlarda esa aksincha, past reytingli korxonalar ulushi yuqori.



4-rasm. Hududlar bo'yicha reyting toifalarining taqsimoti

Yuqoridagi 4-rasmda vertikal o'qda hududlar, gorizontal o'qda reyting toifalaridir. Qizil tus ko'p sonli korxonalar to'planganini, ko'k tus esa kam sonli ekanini bildiradi. Masalan, Toshkent shahar va Farg'onada "CC" toifasidagi korxonalar juda ko'pligi (qizil), Toshkent shahrida AAA–A toifalar nisbatan ko'proq (ko'k-moviy bloklar), Qoraqalpog'istonda esa aksariyat korxonalar D, C, B toifalarda (ko'k tuslar bilan).

Yuqoridagi issiqlik xaritadan ham hududlar kesimida muhim tendensiyalarni ko'rish mumkin. Toshkent shahri hissasiga yuqori reytingli (A va undan yuqori) subyektlarning katta qismi to'g'ri keladi. Masalan, AAA toifasidagi 1983 ta korxonaning 80 tasi Toshkent shahrida, yana 80 tasi Yirik soliq to'lovchilar tarkibida qayd etilgan. Bu hudud umumiy AAA korxonalarning qariyb 8 foizini beradi. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida ham AA–A toifali korxonalar ancha uchraydi. Aksincha, iqtisodiy salohiyati pastroq hududlarda masalan, Sirdaryo, Qoraqalpog'iston "D" va "C" toifalaridagi korxonalar ulushi yuqori. Bu esa o'sha hududlarda biznesning formallashuv darajasi pastroq ekanini ko'rsatadi. Umuman, respublika bo'yicha 14 ta hudud va Yirik soliq to'lovchilar kesimida reyting toifalari ancha turlicha taqsimlangan. Toshkent viloyatida jami korxonalarning 87% ga yaqini reytingda ishtirok etgan ya'ni soliq tizimida faol, Qoraqalpog'istonda esa bu ko'rsatkich atigi 3% atrofida ko'plab kichik korxonalar hali reyting mezonlariga kiritiladigan darajada faol emas. Bu farqlar reyting tizimini takomillashtirishda hududiy omillarni ham inobatga olish lozimligini anglatadi.

Reyting tizimini samaradorligini baholash maqsadida uni Soliq qo'mitasi ichki CRM-NEW (yangi Compliance Risk Management) xavflilik toifalari bilan taqqoslash o'tkazildi. CRM-NEW tizimi soliq to'lovchilarni ichki risk-indikatorlar asosida yuqori, o'rta, past xavfli toifalarga ajratadi. Tabiiyki, barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan korxonalar soliq idorasi nazarida ham kamxavfli bo'lishi kutiladi. Tahlil natijalari ushbu mantiqni umuman tasdiqladi, lekin ayrim nomutanosibliklar ham aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Barqarorlik reytingi hamda CRM-NEW bo'yicha solishtirma MA'LUMOTNOMA

T/r	Hudud	AAA	Shundan					
			Yuqori		Oʻrta		Past	
			soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami		1 983	21	178 568,7	37	14 036,6	1 925	90 936,1
1	Qoraqalpog'iston R.	80	1	2 153,8	1	263,3	78	2 226,2
2	Andijon viloyati	87	1	11,8	2	82,3	84	5 120,6
3	Buxoro viloyati	113	3	6 995,4	1	50,7	109	12 948,0
4	Jizzax viloyati	52	0	0,0	8	627,2	44	2 330,1

5	Qashqadaryo viloyati	82	2	22 024,9	2	25,0	78	2 429,4
6	Navoiy viloyati	41	0	0,0	2	0,0	39	1 960,1
7	Namangan viloyati	111	2	1 253,5	5	1 297,4	104	5 109,3
8	Samarqand viloyati	125	1	616,5	2	20,8	122	8 636,8
9	Surxondaryo viloyati	42	0	0,0	2	3,4	40	1 199,7
10	Sirdaryo viloyati	27	1	111,5	0	0,0	26	1 056,0
11	Toshkent viloyati	192	3	3 979,7	2	22,5	187	9 846,6
12	Farg'ona viloyati	162	0	0,0	2	5 737,2	160	4 705,2
13	Xorazm viloyati	80	1	1 226,7	2	18,0	77	3 323,0
14	Тошкент шаҳри	769	3	1 428,1	2	3,3	764	25 345,3
15	YSTBH DSI	20	3	138 766,9	4	5 885,6	13	4 699,8

Jumladan, AAA reytingga ega 1983 ta korxonadan faqat 21 tasi (1,1%) soliq tizimi tomonidan “yuqori xavfli” deb topilgan, yana 37 tasi (1,9%) “o‘rta xavfli” toifaga kiritilgan xolos, ya’ni 97% AAA reytingli sub’ektlar past xavfli hisoblanmoqda, bu reyting modelining ishonchliligidan dalolat beradi. AA va A toifalarida ham xuddi shunday holat: mos ravishda atigi 0,9% va 0,8% korxonalar yuqori xavfli toifaga tushgan. Boshqa tomondan, quyi reytingli korxonalarda yuqori xavfli deb belgilangan ulush biroz oshadi – D reytingdagi 30 021 ta korxonaning 719 tasi (2,4%) soliq xavfi yuqori toifaga kiritilgan, yana 350 tasi (1,2%) o‘rta xavfli. Bu ko‘rsatkich reyting pasaygani sari soliq xavfi oshishini ko‘rsatsa-da, hatto D toifadagi korxonalarning 96% dan ortig‘i soliq idorasi tomonidan past xavfli deb turibdi. Buning asosiy sababi shuki, reyting “D” toifasiga tushish faqat soliq xavfi bilan bog‘liq emas – masalan, faoliyatsizlik yoki juda kam ball yig‘ish ham D toifaga olib keladi, lekin bunday sub’ektlar soliqdan bo‘yin tovlash xavfi yuqori emas (faqat faol emasligi uchun reytingi past). Demak, reyting va soliq xavfi uyg‘unligi umuman olganda yuqori (korxonalar reytingi yaxshilangan sari ularning soliqqa oid xatarli xatti-harakatlari kamayadi), ammo tizimni takomillashtirish jarayonida ayrim nomutanosib jihatlarni bartaraf etish lozim.

Yuqoridagi solishtirma tahlil reyting mezonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim korxonalar reyting ballarini “sun’iy oshirish” imkoniyatiga ega bo‘lgani ma’lum bo‘lgan. Bunday holatlarning oldini olish uchun vakolatli organlar taklif kiritgan subyektning tovar (xizmat) realizatsiyasi va xaridini amalga oshirmagan davri reyting hisobidan chiqarib tashlanishi belgilandi ya’ni faol bo‘lmagan davr uchun ball berilmaydi. Shuningdek, hisobotlarga tuzatish kiritish bo‘yicha ham o‘zgarish qilindi. Avvallari korxona necha marta qayta hisobot

topshirishidan qat'i nazar bitta mezonida 5 ball chegirilgan bo'lsa, endilikda birinchi marta qayta topshirishga ball chegirilmaydi, lekin ikkinchi va undan keyingi har bir tuzatish uchun ikki baravar ko'proq ball olib tashlash taklifi joriy etildi. Bu o'zgarishlar natijasida korxonalar boshqa mezonlardan sun'iy ball yutib olish maqsadida hisobotlarni ko'p marta tuzatib topshirishdan tiyiladigan bo'ldi.

Bundan tashqari, reyting platformasiga yangi mezonlar qo'shish takliflari ham ilgari surildi. Jumladan, soliq yuki ko'rsatkichi bo'yicha mezon qo'shish rejalashtirilgan. Soliq qo'mitasi tomonidan mazkur mezon bo'yicha o'tkazilgan dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 567 031 ta korxonadan 13,5% i (76 598 ta) eng yuqori – 10 ball olish potensialiga ega, 5,8% i 8 ball, 6,2% i 5 ball, 12,3% i 4 ball, 9,9% i 2 ball, 31,6% i (-5 ball) ko'rsatkichga ega, va 20,6% korxonalarda umuman tovar aylanmasi mavjud emas. Ushbu mezon joriy etilgach, yuqoridagi "nafaol" korxonalar reytingida sezilarli o'zgarish sodir bo'ladi, chunki endilikda ular faollashmaguncha yuqori ball ololmaydi. Yana bir muhim taklif – "shubhali kontragentlar bilan ishlash" indikatorini reytingga integratsiya qilish. Ma'lum bo'lishicha, AAA reytingga ega ayrim korxonalar ko'p miqdorda QQS summasini "shubhali" deb topilgan kontragentlardan hisobga olishgan ya'ni ulardan tovar olmay turib, soliq to'lovlarini kamaytirishga urinishgan. Kelgusida bunday holatlar ham reytingda inobatga olinib, agar korxonaning soliq hamkorlarida qonunbuzar sub'ektlar ulushi yuqori bo'lsa, reyting ballari pasaytirilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlar va takliflar reyting tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning ilmiy-amaliy asoslari mazkur tahlil bo'limida yoritildi. Ta'kidlash joizki, barqarorlik reytingi joriy etilganidan beri qisqa fursatda tadbirkorlarni xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlandi. Ko'plab korxonalar ballarni saqlab qolish va oshirish maqsadida soliqlarni vaqtida to'lashga, hisob-kitoblarni tartibli yuritishga intilmoqda. Rejalashtirilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar esa reytingning haqqoniylilik darajasini yanada oshiradi, uni tadbirkorlik subyektlarining haqiqiy holatini yanada to'g'riroq aks ettiradigan mexanizmga aylantiradi. Bu esa kelgusida ilmiy jamoatchilik va amaliyotchilar e'tiborida bo'lib, ushbu reyting modelining samaradorligini muntazam o'lchab borish, takomillashtirish bo'yicha yangi ilmiy takliflar ishlab chiqishni talab etadi. Shunday xulosaga kelish mumkinki, "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" tizimi qisqa muddatda o'zini oqladi va hozircha xalqaro darajada noyob innovatsion yondashuv sifatida e'tirofga loyiqdir. Kelgusida ushbu reytingni boshqa sohalaridagi (masalan, bank-kredit, investitsiya) reytinglar bilan uyg'unlashtirish, xalqaro kredit reyting agentliklari metodologiyalari bilan taqqoslash kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda joriy etilgan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimi qisqa vaqt ichida o'zini samarali amaliy mexanizm sifatida namoyon etdi. O'tkazilgan tahlillar reyting tizimi nafaqat soliq intizomini mustahkamlashda, balki biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini baholashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, reyting ballari korxonalarning foyda miqdori, ish haqi fondi, eksport hajmi, shuningdek, soliq to'lovlari bilan uzviy bog'liqligi

kuzatildi. Reyting darajasi oshgan sari, kompaniyaning iqtisodiy faoliyati ham barqaror va ochiq tus olgani aniqlandi.

Hududiy tahlillar esa Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida yuqori reytingli subyektlar ko'proqligini, ayrim iqtisodiy salohiyati past hududlarda esa "D", "C" toifadagi subyektlar ustunligini ko'rsatmoqda. Bunday tafovutlar reyting tizimida hududiy omillarni hisobga olgan holda moslashuvchan yondashuvlarni joriy etish zarurligini anglatadi. Shuningdek, barqarorlik reytingining CRM-NEW xavf tahlil tizimi bilan o'zaro muvofiqligi ham tahlil etildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori reytingli korxonalar, odatda, soliq organlari tomonidan past xavfli deb baholanadi. Bu esa reyting tizimining ishonchliligi va real holatni aks ettirish darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Reyting tizimining yana bir muhim jihati shundaki, u rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi. Soliq intizomini ixtiyoriy ravishda mustahkamlovchi korxonalar imtiyozlarga ega bo'lishi orqali tizim "jazolovchi" emas, "rivojlantiruvchi" yondashuvga asoslangan. Aynan shu tamoyil tadbirkorlarning reyting ballarini oshirishga intilishini kuchaytirdi. Biroq, ayrim subyektlar tomonidan ballarni sun'iy oshirishga bo'lgan urinishlar tizimni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, nafaol davrlar uchun ball berishni cheklash, hisobotlarga takroran tuzatish kiritish hollari uchun differensial chegirma tizimini joriy etish bo'yicha takliflar bu borada muhim choralar bo'lishi mumkin.

Kelgusida reyting tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- birinchidan, reyting tizimiga soliq yuki, eksport ulushi, elektron hisob-faktura ulushi kabi qo'shimcha mezonlarni joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatni chuqurroq aks ettirish;
- ikkinchidan, "shubhali kontragentlar bilan ishlash" indikatorini reytingga integratsiya qilish va noqonuniy soliq optimallashtirish holatlariga nisbatan aniqlikni oshirish;
- uchinchidan, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida kichik biznes subyektlari uchun alohida baholash segmentlarini joriy etish;
- to'rtinchidan, reyting natijalarini kredit siyosati, davlat xaridlari va boshqa iqtisodiy preferensiyalar bilan bog'lash orqali ularning amaliy ahamiyatini kuchaytirish;
- va nihoyat, xalqaro reyting agentliklari (S&P, Fitch, Moody's) metodologiyasi bilan qiyosiy moslikni kuchaytirish, bu orqali O'zbekiston tajribasini xalqaro darajada tan olinishiga erishish.

Xulosa qilib aytganda, barqarorlik reytingi tizimi tadbirkorlik muhitini tartibga soluvchi, moliyaviy va fiskal intizomni oshiruvchi, hamda ijtimoiy javobgarlikni rag'batlantiruvchi zamonaviy boshqaruv vositasiga aylanmoqda. Uzoq muddatda bu tizim davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlash, biznesni formallashtirish darajasini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, reyting tizimini doimiy monitoring qilish, ilmiy asoslangan takliflar bilan boyitib borish va xalqaro hamkorlikda rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altman E. I. Corporate Financial Distress and Bankruptcy: Predict and Avoid Bankruptcy, Analyze and Invest in Distressed Debt. – Hoboken: Wiley Finance Series, 2013.
2. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – Hoboken: Wiley, 2020.
3. Graham J. R., Smart S. B. Introduction to Corporate Finance: What Companies Do. – Boston: Cengage Learning, 2019.
4. OECD. Strengthening Fiscal Risk Management in Emerging Markets. – Paris: OECD Publishing, 2021.
5. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Transparency Handbook. – Washington, D.C.: IMF, 2019.
6. White L. J. The Credit Rating Agencies // Journal of Economic Perspectives. – 2017. – Vol. 24, № 2. – P. 211–226.
7. Rustamov A. Soliq ma'lumotlari asosida biznes faoliyatini reytinglash yondashuvlari // Iqtisodiyot va moliya jurnali. – 2022. – № 4 (58). – B. 23–29.
8. Karimov I. Soliq boshqaruvini raqamlashtirish va reyting tizimlarining joriy etilishi // O'zbekiston soliq siyosati sharhlari. – 2023. – № 2 (11). – B. 12–17.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–39-son qarori, 2024-yil 23-yanvar "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimini joriy etish to'g'risida".
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri), 2022-yil 1-yanvardan kuchga kirgan holatdagi nashr.
11. Soliq qo'mitasi rasmiy sayti – www.soliq.uz. – 2024-yilgi tahliliy ma'lumotlar bo'limi.
12. Savdo-sanoat palatasi rasmiy sayti – www.chamber.uz. – "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" platformasi.
13. Abdullayev Z. S. Raqamli fiskal boshqaruvda barqarorlik reytingining metodologik asoslari va amaliy samarasi // O'zbekiston sug'urta bozori jurnali. – 2024. – № 1 (95). – B. 41–52.